

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.17/7.06.2024.K/T06.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ISMATOVA RA'NO AXADOVNA

**SUVLI ERITMALARDA POLISAXARID VA POLIAKRILATLARDAN
IBORAT KOMPOZITSIYALARNING STRUKTURA HOSIL QILISHI VA
ULAR ASOSIDA OHORLOVCHILAR OLISH TEXNOLOGIYASINI
YARATISH**

02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**Dissertatsiya himoyasisiz ixtiro patenti asosida texnika fanlari doktori (DSc)
ilmiy darajasi olish uchun tayyorlangan
TAQDIMNOMA**

Dissertatsiya himoyasisiz ixtiro patentlari asosida texnika fanlari doktori (DSc)
taqdimnomasi mundarijasi

Ismatova Ra’no Axadovna

Suvli eritmalarda polisaxarid va poliakrilatlardan iborat kompozitsiyalarning
struktura hosil qilishi va ular asosida ohorlovchilar olish texnologiyasini
yaratish.....3

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati36

Ixtiro patent ilovalari39

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.17/7.06.2024.K/T06.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ISMATOVA RA'NO AXADOVNA

**SUVLI ERITMALARDA POLISAXARID VA POLIAKRILATLARDAN
IBORAT KOMPOZITSIYALARNING STRUKTURA HOSIL QILISHI VA
ULAR ASOSIDA OHORLOVCHILAR OLISH TEXNOLOGIYASINI
YARATISH**

02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**Dissertatsiya himoyasisiz ixtiro patenti asosida texnika fanlari doktori (DSc)
ilmiy darajasi olish uchun tayyorlangan
TAQDIMNOMA**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.DSc/T614ra ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.nsumt.uz va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Amonov Muxtar Raxmatovich
texnika fanlari doktori, professor

Dissertatsiya himoyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi DSc.17/7.06.2024.K/T.06.03 raqamli Ilmiy kengashning «12» aprel 2025-yil soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 210100, Navoiy shahri, G'alaba shoh ko'chasi, 76 v-uy. Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining majlislar zali. Tel.: 0 (436) 223-23-32; faks: 0 (436) 223-49-66; (e-mail: info@nsumt.uz).

Taqdimot bilan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (191 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 210100, Navoiy shahri, G'alaba shoh ko'chasi, 76v-uy. Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining majlislar zali. Tel.: 0(436)223-23-32; faks: 0 (436) 223-49-66; (e-mail: info@nsumt.uz)

Taqdimnoma 2025-yil «26» mart kuni tarqatildi.

(2025-yil «26» martdagi 4 raqamli reyestr bayonnomasi).



B.F.Muxiddinov

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash raisi, k.f.d., prof.

S.Sh.Sharipov

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash kotibi, PhD., dots.

KIRISH (fan doktori (DSc)) taqdimnomasi annotatsiyasi

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda aholi sonining keskin ortib borishi natijasida tabiiy tola asosidagi matolarga bo'lgan talabni ham oshishiga olib keladi. Shu bilan bir qatorda to'qimachilik sanoatining yuqori sur'atlarda rivojlanib borishi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga bo'lgan talab yildan yilga oshib bormoqda. Ayniqsa, suvda eruvchan polimerlar asosida ohorlovchilar tarkiblarini ishlab chiqish va kalava iplarni ohorlash jarayonini qo'llash natijasida ohorlangan iplarni fizik-mexanik xossalarini yaxshilash imkonini beradi. Paxta tolasi asosidagi yarim tayyor va tayyor materiallarning sifati va raqobatbardoshligini oshirish, to'qimachilik sanoati korxonalarida oldida turgan eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Ularning yechimlaridan biri ohorlashda qo'llaniladigan respublikamizda import qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlari hisoblangan kraxmal va kimyoviy reagentlar sarfini kamaytirishga qaratilgan samarali resurstejamkor texnologiyalarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda bugungi kunga kelib suvda eruvchan polimer tarkiblar olish bo'yicha dunyoda o'tkazilayotgan tadqiqotlarda va ishlab chiqilayotgan yangi texnologiyalarda oziq-ovqat mahsulotlari hisoblangan kraxmalni to'liq almashtirish yoki uning sarfini keskin kamaytirish maqsadida samarali va sifatli ohorlovchi polimer ingredientlar olishga imkon beruvchi ilmiy-tadqiqot ishlariga e'tibor berilmoqda. Bu borada, to'qimachilik korxonalarida kalava iplarni ohorlashda yuqori samarador tarkiblarni ishlab chiqish, kalava ip sirtida yupqa mustahkam elastik plyonka hosil qiluvchi ohorlovchilar olish, olingan ohorlovchi tarkiblarning tolaga nisbatan adgeziyasi va mexanik ta'sirlarga barqarorligini aniqlash, ohorlash jarayonida kraxmal sarfini kamaytirish, chet el ohorlovchi tarkiblarining o'rnini bosa oladigan, energiya hamda resurstejamkor ohorlovchilar olish texnologiyasini ishlab chiqishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda kimyo sanoatining yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'nalishida muayyan natijalarga erishilmoqda, jumladan, mahalliy bozorni import o'rnini bosuvchi ohorlovchi ingredientlar bilan ta'minlash sohasida keng ko'lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali sanoat obyektlarini yuritishning ilmiy asoslangan tizimi va atrof-muhitni muhofaza qilishning chora-tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha ilg'or ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni joriy qilib, bir qator ilmiy-amaliy natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillardagi taraqqiyot strategiyasida»¹ iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlari belgilangan hamda mahalliy xom-ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida, yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulot turlarini ko'paytirish, sifat jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish masalalari alohida belgilab qo'yilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, mahalliy xom-ashyolar asosida tabiiy va suvda eruvchan polimer ohorlovchi materiallarni ishlab chiqarish uchun iqtisodiy jihatdan samarali va ekologik toza texnologiyalarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2020-yil 5-maydagi PF-5989-son «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonlari, 2017-yil 23-avgustdagi PQ-3236-sonli «2017-2021 yillarda kimyo sanoatini rivojlantirish dasturi to'g'risida»gi, 2018-yil 25-oktyabrdagi PQ-3983-sonli «O'zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining VII «Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarildi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Tabiiy va suvda eruvchan sintetik polimerlar asosida paxta tolali kalava iplarni ohorlashda yangi turdagi yuqori samarali resurstejamkor ohorlovchi polimer kompozitsiyalarni olish, ularni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy qilishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan: Texas Technical University (AQSh); Department of Environmental Sciences University of Virginia (AQSh); Engineering and Technology Aligarh Muslim University (Hindiston); Exxon, BASF (Germaniya); The Institute of Chemical Technology (Ispaniya); Universite Europeenne de Bretagne (Fransiya); A.N.Kosigin nomidagi Rossiya davlat universiteti (Rossiya); Ivanovo davlat politexnika universiteti to'qimachilik instituti (Rossiya); Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti; Buxoro davlat universitetida olib bormoqdalar.

Jahonda paxta tolasi asosidagi kalava iplarni ohorlashda kraxmal sarfini kamaytirish maqsadida uni turli suvda eruvchan sintetik polimerlar bilan modifikatsiyalab ohorlovchilar olish texnologiyasi va ular asosida olingan ohorlovchilarning qo'llanilishiga oid quyidagi natijalar olingan: kraxmalni poliakrilamer bilan modifikatsiyalash orqali ohorlovchilar olingan (Department of Environmental Sciences University of Virginia, AQSh), kraxmal karboksimetiltseilyuloza va ularning hosilalari asosida ohorlovchilarni tarkibi, tuzilishi va xossalari aniqlangan (Exxon, BASF, Germaniya), kraxmalni oksidlab, xlorid kislota, Na-CMS va SFM asosida ohorlovchi kompozitsiya olingan (Texas Technical University, AQSh), sellyuloza saqlagan kalava iplarni ohorlash uchun kraxmal suspenziyasiga turli xil parchalovchi poliferment preparatlari asosida ohorlovchi olish usullari ishlab chiqilgan (Engineering and Technology Aligarh Muslim University, Hindiston), kraxmal suspenziyasiga turli modifikatorlar, lignosul'fonatlar va ularning hosilalarini qo'llab, ohor olish usullari (Ivanovo davlat politexnika universiteti to'qimachilik instituti, Rossiya) ishlab chiqilgan.

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha joriy ilmiy – tadqiqotlar sharhi: <https://www.wvu.edu/>; <https://www.utokyo.ac.jp/en/>; <http://www.mak.ac.ug/>; <http://vniifats.ru/>; www.uzicp.uz/; www.tkti.uz/;

Dunyoda suvda eruvchan sintetik polimerlar asosida ohorlovchilar olish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarda quyidagi qator tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan: to'qimachilik sanoatida kalava iplarni ohorlashda yuqori yelimlash qobiliyatini namoyon qiluvchi samarador tarkiblarni ishlab chiqish, ohor tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish, kalava ip sirtida yupqa elastik mustahkam plyonka hosil qiladigan, tolaga nisbatan adgeziyasi yuqori, mexanik ta'sirlarga barqaror, to'qish dastgohlarida kalava iplarni uzilishlar sonini kamaytirish, kinetik va agregativ jihatdan barqaror, ohorlangan kalava ipning kuch ta'sirida uzilish mustahkamligini oshiradigan, energiya hamda resurstejamkor ohorlovchilar olish texnologiyalarini ishlab chiqish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Paxta tolasi asosidagi kalava iplarni ohorlash uchun suvda yuqori bo'kuvchan yelimlovchilarni olish va kalava iplarni ohorlash texnologiyasini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar bo'yicha katta hajmdagi ma'lumotlar mavjud bo'lib, bu sohada xorij olimlari Y.I.Berenshteyn, B.Kristof, D.Patrik, I.V.Ryabina, K.A.Andrianov, E.B.Avakyan, I.Yu.Vashurina, N.E.Sharova, T.L.Sheglova, L.I.Gandurina, S.V.Smirnova, L.V.Tixonovskaya, S.V.Ledneyev va boshqalarning ishlarida ohorlovchi polimerlarni yaratishda yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish ma'lumotlari keltirilgan bo'lib, uning asosida turli tarkibli ohorlovchi samarali kompozitsiyalarning struktura hosil qilishi sharoitlari, reologik va fizik-kimyoviy xossalriga ohorlangan kalava ipning fizik-mexanik va mustahkamlik ko'rsatkichlariga komponentlarning ta'siri hamda ohorning tolaga nisbatan adgeziyasi, mustahkam elastik plyonka hosil qilishi, to'quv dastgohlarida kalava iplarning uzilishlar sonini kamayishi kabi ko'rsatkichlar o'rganilgan.

Respublikamizning bir qator yirik olimlari M.A.Asqarov, S.S.Negmatov, A.T.Jalilov, Yu.T.Toshpulatov, M.Z.Abdukarimova, O.M.Yoriyev, I.A.Nabiyeva va M.R.Amonovlar va ularning shogirdlari tomonidan tabiiy va suvda eruvchan sintetik polimerlar asosida kalava iplarni ohorlashda ohorlovchilar olish va ohorlash texnologiyalari respublikamiz va xorijda ishlab chiqarishda mavjud texnologiyalari har tomonlama tahlil qilingan va har xil sharoitlarda kraxmalni modifikatsiyalash orqali yangi turdagi ohorlovchi materiallar olingan.

Lekin tabiiy polimer-kraxmalni suvda eruvchan sintetik polimerlar asosida modifikatsiyalab ulardan olinadigan ohorlovchi polimer kompozitsiyalarni ohorlash samaradorligini oshirish imkonini beruvchi texnologik usullarni joriy etish va baholashni tahlil qilish, mahalliy xom-ashyolar asosida yangi turdagi iqtisodiy jihatdan samarador va ekologik toza, tolaga nisbatan yuqori adgezion xossaga ega, kalava ip sirtida yupqa elastik plyonka hosil qilish xossasini namoyon qiladigan resurstejamkor raqobatdosh ohorlovchilar ishlab chiqarishda foydalanishga kam e'tibor berilganligidan dalolat bermoqda. Tanlangan polimerlar asosida bir vaqtning o'zida kraxmal birlamchi gidroksid guruxlari bilan sintetik polimerlar funktsional guruhlari o'rtasida Van-deer-Val's kuchlari asosida vodorod bog' sodir bo'lishi hisobidan struktura hosil qilish xususiyatiga ega bo'lgan yangi turdagi ohorlovchilarni olish, olingan ohorlovchi kompozitsiyalarning fizik-kimyoviy va reologik xossalarni aniqlash, sanoat uchun import o'rnini bosuvchi raqobatbardosh yangi ohorlovchilarni olishga sharoit yaratadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog' liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq OT-F3-009 «Modifikatsiyalangan kraxmal va suvda eruvchan polimerlar asosida to'qimachilik sanoati uchun kompozitsiyalar yaratishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish va ularning fizik-kimyoviy xossalarini o'rganish» va YoA-12-8 «Kraxmalni modifikatsiyalash va uning asosida yangi import o'rnini bosuvchi materiallar olish texnologiyasini yaratish» mavzularidagi fundamental va amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi suvli eritmalarda polisaxarid va poliakrilatlardan iborat kompozitsiyalarning struktura hosil qilishi va ular asosida ohorlovchi ingredientlar yaratishhamda to'qimachilik sanoatida foydalanishning ilmiy-texnologik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tarkibida kraxmal, karboksimetilsellyuloza, PAA, GIPAN, akril emulsiyasi va polifosfat kislotaning kaliyli tuzi turli xil bog'lovchilar hamda yelimlash qobiliyati yuqori bo'lgan ohorlovchilar olishning optimal sharoitlarni aniqlash;

turli tarkibdan iborat tabiiy va sintetik suvda eruvchan polimerlar asosida olingan yuqori bo'kuvchan ohorlovchi kompozitsiyalarning fizik-kimyoviy xossalari va tuzilishini zamonaviy tadqiqot usullari yordamida tadqiq qilish;

yuqori samarali yelimlovchi ohorning kalava ip sirtidagi sorbsion xossalariga dastlabki moddalar tabiati va konsentratsiyalarining ta'sirini aniqlash;

mahalliy xom-ashyolar asosida olingan ohorlovchi polimer kompozitsiyalar bilan paxta tolasi asosidagi kalava iplarni ohorlash va ohorlangan kalava iplarning fizik-mexanik hamda ekspluatatsion xossalarini tadqiq qilish;

turli kimyoviy reagentlar bilan kraxmalni modifikatsiyalash jarayoni va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish hamda ohorlash jarayonini amalga oshirishning texnik-iqtisodiy samaradorligini aniqlash;

yangicha izlanishlar va ishlanmalar natijalarini tajriba – sinov tekshiruvlaridan o'tkazish va ishlab chiqarishga joriy etish;

Tadqiqotning obyekti sifatida kraxmal, poliakrilatlar, gidrolizlangan poliakrilonitril, karboksilmetilkraxmal, polivinilatsetat, karboksimetilsellyuloza, akril emulsiyasi va polifosfat kislotaningkaliyli tuzi va paxta tolasi asosida kalava ip olingan.

Tadqiqotning predmetini mahalliy xom-ashyolar asosida olingan ohorlovchi polimer kompozitsiyalarning fizik-kimyoviy xossalariga kompozitsiya tarkibida modifikatorlarning ta'sirini tadqiq etish va kalava iplarni ohorlashda yuqori samarali yelimlovchi polimer kompozitsiyalarni olish texnologiyasini ishlab chiqishtashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida olingan ohorlovchilarning tuzilishi, fizik-kimyoviy va morfologik xossalarini o'rganishda IQ-spektroskopiya, DTA, YaMR-spektroskopiya, skanerlash elektron mikroskopiya va rentgen fazaviy analiz usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tarkibida poliakrilatlar, gidrolizlangan poliakrilonitril, karboksilmetilkraxmal, polivinilatsetat, karboksimetilsellyuloza, akril emulsiyasi va polifosfat kislotaning

kaliyli tuzi hamda turli xil bog'lovchi va yelimlovchilar asosida resurstejamkor mahalliy xom-ashyolarga asoslangan ohorlovchilar olishning qulay sharoitlari aniqlangan;

olingan ohorlovchi polimer kompozitsiyasi tarkibidagi suvda eruvchan, yelimlovchi komponentlar funktsional guruhlari bilan kraxmal birlamchi gidroksil guruhlari o'rtasida o'zaro ta'sirlashish mexanizmi va unga ta'sir etuvchi turli omillar optimal ko'rsatkichlari aniqlangan;

kompozitsiya tarkibidagi suvda eruvchan sintetik polimerlar ohor plyonkasining mustahkamligini, elastikligini va sorbsion xossalarini yaxshilashi, sistemaning qovushqoqligi va tola sirtida ohor adgeziyasining yuqori bo'lishi natijasida kalava ipning mustahkamligi 33-37% ga o'tishi hamda to'quv dastgohlarida kalava iplarning uzilishlar soni 1,6-1,8 marta kamayganligi isbotlangan;

olingan ohorlovchi polimer kompozitsiya tarkiblarning ishlab chiqarishda qo'llanib kelinayotgan ohorlovchilarga nisbatan uning kinetik va agregativ barqarorligi, ohorlangan kalava ipning yukdagi va cho'zilishdagi shartli mustahkamlik xossalari oshganligi, uzilishdagi nisbiy cho'zilish xossasi esa kamayganligini hamda ohorlash jarayonida kraxmal sarfining 35-40% ga kamaytirish imkonini yaratilganligi isbotlangan;

tabiiy polimer-kraxmalni suvda eruvchan turli xil organik va noorganik polimerlar bilan modifikatsiyalash natijasida olingan import o'rnini bosuvchi ohorlovchining fizik-kimyoviy va reologikohor kompozitsiyasi xususiyatlariga hamda ohorlangan kalava ip fizik-mexanik, ekspluatatsion xossalariga ohor kompozitsiyasi tarkibidagi reagentlar konsentratsiyalari ta'siri aniqlangan;

kraxmalni suvda eruvchan polimerlar bilan kimyoviy modifikatsiyalash orqali olingan ohorlovchilar texnik va texnologik talablarga to'liq javob beradigan, ekologik toza va iqtisodiy jihatdan arzon, bioparchalanuvchan, yuqori bo'kuvchan hamda yelimlash qobiliyati yuqori bo'lgan paxta tolasi asosidagi ohorlovchilar olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kraxmal, poliakrilatlar, gidrolizlangan poliakrilonitril, karboksilmetilkraxmal, polivinilatsetat, karboksimetilsellyuloza, akril emulsiyasi va polifosfat kislotaning kaliyli tuzidan iboratohorlovchi kompozitsiyalarning optimal tarkiblari ishlab chiqilgan va kalava iplarni ohorlash uchun yuqori bo'kuvchan va yelimlash xossasini namoyon qiluvchi ohorlovchilar olishning optimal sharoitlari aniqlangan;

tadqiqotning zamonaviy usullari asosida ohorlovchilar kompozitsiyasi tarkibidagi suvda eruvchan sintetik polimerlarning tabiati va konsentratsiyasiga bog'liq holda yuqori samarali turli ohorlovchi sistemalarni olish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

tabiiy va suvda eruvchan sintetik polimerlar asosida olingan ohorlovchilar suvli eritmaları reologik xossalari, jumladan: qovushqoqligi, oquvchanlik chegarasi, tiksotropik tiklanish darajasi, ohor eritmasining saqlash muddati 8 soatdan 24 soatga oshganligi hamda kinetik va agregativ jihatdan barqarorligi aniqlangan;

ishlab chiqilgan turli tarkibli ohorlovchilar bilan kalava iplarni ohorlash jarayoni amalga oshirilganda uning sirtida ohor adgeziyasining yuqori bo'lishi natijasida yupqa, mustahkam, elastik plyonka hosil bo'lishi ohorlangan kalava ipning kuch

ta'siridagi mustahkamligi 28-33% ga oshganligi, yukdagi cho'ziluvchanlik esa 8-11% ga kamayganligi isbotlangan;

ekologik toza va iqtisodiy samarador bo'lgan ohorlovchi polimer kompozitsiya bilan ohorlangan kalava iplarning mustahkamligi ortishi natijasida to'quv dastgohlarida amalga oshiriladigan mato olish jarayonida kalava iplarning uzilish ko'rsatkichi 0,31 dan 0,11 uzil/m gacha kamayishi hisobiga yarim tayyor mato olish unumdorligi ortganligi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlarda olib borilgan sezilarli hajmdagi tajriba va sanoat miqyosida o'tkazilgan eksperimentlarning natijalarini qoniqarli mutanosibligi, IQ-spektroskopik, kimyoviy, differensial – termik analizlar va boshqa zamonaviy fizik-kimyoviy, fizik-mexanik tahlil usullari yordamida samarali ohorlovchi mahsulotlarni ishlab chiqarish texnologiyasini yaratilganligi, ulardan foydalanishda tajriba-sanoat ko'lamida sinovdan o'tkazilganligi va ishlab chiqarishda qo'llanilganligi asosida olingan natijalarining mos kelishi bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tabiiy va suvda eruvchan sintetik polimerlar bilan ohorlovchi tarkibidagi kraxmalni kimyoviy modifikatsiyalash, olingan samarador ohorlovchilarning kalava iplarga nisbatan adgezion xossasi yuqori bo'lgan va uning sirtida mustahkam elastik plyonka hosil bo'lishi natijasida kalava iplarni ohorlash samaradorligini oshirishning maqbul sharoitlari aniqlanganligi va texnologiyasini yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, respublikamiz kimyo sanoatida ishlab chiqarilayotgan tabiiy va suvda eruvchan sintetik polimerlar asosida olingan ohorlovchi tarkiblarni qo'llash natijasida to'qimachilik sanoati uchun zarur bo'lgan ohorlovchilar tarkiblarini qo'llab, kalava iplarning fizik-mexanik hamda ekspluatatsion xossalarini yaxshilash natijada oziq-ovqat mahsuloti hisoblangan kraxmal sarfini keskin kamaytirish yoki to'liq almashtirish, tayyorlangan ohorning saqlash muddati uzoq bo'lgan, kinetik va agregativ jihatdan barqaror, kalava iplarni ohorlashda yuqori samaradorlikka ega va import ohorlovchilar bilan raqobatbardosh bo'lgan yoki uni to'liq almashtirish hisobidan yangi turdagi ohorlovchilarni ishlab chiqarishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Suvli eritmalarda polisaxarid va poliakrilatlardan iborat kompozitsiyalarning struktura hosil qilishi va ular asosida ohorlovchi ingrediyentlar yaratish bo'yicha olingan natijalar asosida:

tabiiy va suvda eruvchan sintetik polimerlar asosida ohorlovchi tarkiblarni olish texnologiyasi "Navoiyazot" AJ korxonasining 2025-yilgi import o'rnini bosuvchi mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish istiqbolli rejasiga kiritilgan. ("Navoiyazot" AJning 2024-yil 22-oktyabrdagi 03-3/5450-son ma'lumotnomasi). Natijada, import o'rnini bosuvchi paxta tolali asosidagi kalava iplarni ohorlashda yuqori samarali ohorlovchi materiallarni olish imkonini bergan;

tarkibida kraxmal, poliakrilatlar, gidrolizlangan poliakrilonitril, karboksilmetilkraxmal, polivinilatsetat, karboksimetilsellyuloza, akril emulsiyasi va polifosfat kislotaning kaliyli tuzi asosida olingan yangi turdagi ohorlovchi polimer kompozitsiya bilan kalava iplarni ohorlash texnologiyasi "O'zto'qimachilik sanoat"

uyushmasi negizidagi korxonalarda amaliyotga joriy etilgan. (“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2024-yil 13-noyabrdagi 03/25-3073-son ma‘lumotnomasi). Natijada, taklif etilayotgan ohorlovchi tarkiblar bilan kalava iplarni ohorlash texnologiyasining yo‘lga qo‘yilishi to‘qimachilik korxonalarida import ohorlovchi vositalarni to‘liq almashtirish imkonini bergan.

olingan ohorlovchilar bilan paxta tolasi asosidagi yuqori ekspluatatsion xossalarga ega bo‘lgan kompozitsiyalarni olish texnologiyasi “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi negizidagi korxonalarda amaliyotga joriy etilgan. (“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2024-yil 13-noyabrdagi 03/25-3073-son ma‘lumotnomasi). Natijada, sintez qilingan yuqori bo‘kuvchan va yelimlash qobiliyatini namoyon qiluvchi ohorlovchilar bilan ohorlangan kalava iplar to‘quv dastgohlarida kalava iplarning uzilishi 0,31-0,06 uzil/m gacha kamayishi hisobiga dastgohlarning unumdorligi ortganligi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 8 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 28 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, 3 ta patent, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta, jumladan, 3 tasi respublika va 7 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

1. O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligining “Shlixta kompozitsiyasini olish usuli”(№ IAP 07578) ixtiro patenti .

Foydalanish sohasi. Paxtadan tayyorlangan iplarni shlixtalash uchun to‘qimachilik sanoatida qo‘llanadi.

Vazifasi: mustahkamlik ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan ohor tarkibini olish usulini ishlab chiqish, kraxmal sarfini qisqartirish.

Ixtiro mohiyati: shlixta kompozitsiyasini olish usuli taklif qilingan bo‘lib, u suvda guruchli kraxmal suspenziyasini tayyorlashni, polimer qo‘shimchani qo‘shishni, 10-12 daqiqa davomida 85°C haroratgacha qizdirishni, tayyor mahsulot chiqqani holda 15-20 daqiqa davomida kleysterlashni ichiga oladi, polimer qo‘shimcha sifatida doimiy aralashtirgan holda bir vaqtda polivinilatsetat, kaliy polifosfati va poliakrilonitrilning gidrolizlangan sopolimeri asosida pH-10-12 bo‘lgan K-4 preparati komponentlarning quyidagi nisbatida, massa foizi hisobida qo‘shiladi: guruch kraxmal – 3,5-4,0; polivinilatsetat – 0,4-0,5; kaliy polifosfati – 0,02-0,03; K-4 preparati – 0,1-0,2; suv – 100 gacha.

Ixtiro to‘qimachilik sanoatiga, ya‘ni paxta tolalarini ohorlash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan ohorlovchi kompozitsiyani ishlab chiqarish texnologiyasiga tegishli.

Paxta tolasi asosidagi kalava iplarini ohorlash jarayoni tayyor mato olish uchun sanoat ishlab chiqarishida muhim texnologik jarayonlardan biridir. Ushbu jarayonning asosiy vazifasi yumshoq kalava ip sirtida yopishish qobiliyati bo‘lgan polimer komponentlarni tanlash va paxta tolali kalava iplarning yuqori namlash qobiliyatiga ega, yetarli yopishqoqlikka ega bo‘lgan, yuqori elastik plyonka hosil

bo'lishiga olib keladigan asosiy ingrediyentlar ohorlovchilar deb ataladi. Kalava ip sirtida yupqa plyonka hosil qilish, saqlash va ishlatish vaqtida barqaror bo'lish, shuningdek, ohorlangan kalava ipdan oson yuviladigan hamda yaxshi biologik parchalanish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Yangi ohorlovchi materiallarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish nafaqat oziq-ovqat xomashyosi hisoblangan kraxmal sarfini kamaytirish, balki ohorlovchilarni olish texnologik xususiyatlariga qo'yiladigan yuqori talablarni saqlab qolgan holda, import qilinib kelinayotgan ohorlovchi materiallardan foydalanishni qisman yoki to'liq bartaraf etish imkonini beradi.

Dunyoda har yili ohorlovchi materiallarga bo'lgan ehtiyoj qariyb 3 million tonnani tashkil etadi, shundan 75% kraxmal (60% - kartoshka va makkajo'xori, 15% - modifikatsiyalangan), 12% - poliakrillar, 11% - PVA, KMIQ va boshqa turdagi ohorlovchilar – 2%ni tashkil etadi. Taqdim etilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki asosiy ohorlovchi reagent kraxmal ekanligini ko'rsatdi. Biroq, ohorlovchi reagent sifatida kraxmalni qo'llash bir qator kamchiliklarga ega: ularning asosiysi tolada hosil bo'lgan plyonkaning mo'rtligi, yuqori yopishqoqlik xususiyatlarini namoyon qilmasligi hisoblanadi. Shuning uchun tadqiqotning asosiy yo'nalishi suvda eruvchan sintetik polimerlar asosida ohorlovchilar olish va ularning kalava ip sirtida adgeziyasini yaxshilash hamda uning yopishqoqlik xususiyatlarini oshirishga qaratilgan.

Ma'lumki, paxta tolasi asosidagi kalava iplarni qayta ishlashda bir qator mexanik ta'sirlarga duchor bo'lib, uning xususiyatlarini pasayishiga olib keladi. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, suvda eruvchan sintetik polimer materiallardan foydalanish kalava ipning fizik-mexanik xossalarini sezilarli darajada yaxshilanishiga, shuningdek, to'qish jarayonida ohorlangan kalava ipning uzilishlar sonini kamayishiga olib keladi.

Hozirgi kunga qadar texnologik xususiyatlarga ega optimal ohorlovchi kompozitsiyalar olish va amaliyotda qo'llash masalalari ijobiy hal etilmagan va bu sohada tadqiqotlar davom etmoqda.

Ohorlovchilarning sifati fizik-kimyoviy va texnologik xususiyatlari majmuasi bilan belgilanadi, masalan: konsentratsiya, qovushqoqlik, yelimlash darajasi, oquvchanlik chegarasi, yupqa plyonka hosil qilish, kalava ipga nisbatan yuqori adgezion xossasini namoyon qilishi, yukdagi mustahkamlikni yumshoq kalava ipga nisbatan 30-35%ga oshirish xususiyatlari hisoblanadi.

Mato ishlab chiqarish jarayonida texnologik jarayonlarda qo'llaniladigan ohorlovchi preparatlarga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Kalava ip sirtida yuqori elastik plyonka hosil qilish qobiliyati;
2. Ohor nafaqat tola sirtida, balki uning ichki qismiga kirib borishi zarur;
3. Nisbatan kamaygan ishqalanish koeffitsiyenti bilan ipda mustahkam va elastik plyonka yaratish uchun zarur bo'lgan yetarlicha yuqori plyonka hosil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
4. Ohorlangan kalava ip to'quv jarayonida turli mexanik ta'sirlarga: ishqalanish, egilish, buralish va tortilishiga bardosh berish qobiliyatiga ega bo'lishi;
5. Ohorlangan kalava ip ohorlash mashinasi quritish moslamasidan keyingi bosqichi taroqdan o'tganda ohorlovchi plyonkaning barqarorligini ta'minlash (ohor

plyonkalari 120-130°C haroratgacha qizdirilganda yumshamasligi, erimasligi va parchalanmasligi kerak);

6. Ohorlangan kalava ipdan mato olib bo'lgandan so'ng, ohor yuvish vaqtida matodan osongina to'liq yuvilishi kerak;

7. Kalava ip sirtida hosil bo'lgan plyonka namni yaxshi yutish qobiliyatini namoyon qilishi kerak, u kalava ipning elastiklik xususiyatini yaxshilaydi, toksik xususiyatga ega bo'lmasligi hamda yaxshi biologik parchalanuvchan bo'lishi kerak.

Bu yerda analog sifatida olingan va polimer qo'shimchasi, natriy gidroksid, xloramin va suv bilan kraxmal aralashmasini tayyorlash, aralashmani jelatinlash va qizdirishdan iborat bo'lgan kalava ipni ohorlash uchun kraxmal yelimini ishlab chiqarishning ma'lum usuli mavjud. Aralashtirish quyidagicha amalga oshiriladi: yuqoridagi barcha reaktivlar kerakli miqdorda reaktorga yuklanadi va 85-90°C haroratgacha qizdiriladi. Ushbu isitish jarayonida kraxmal jelatinizatsiyasi va ohorlovchidagi yakuniy pishirish sodir bo'ladi. Ohor tayyorlash uchun umumiy tayyorgarlik vaqti 25-30 daqiqa. Ushbu usulning kamchiliklari – ohorlovchini tayyorlashning murakkabligi, ohor pishirish jarayonining uzoq davom etishi va ohorlangan kalava ipning qattiqligi sezilarli darajada oshadi. Bundan tashqari, lignosulfonatlarning ohor tarkibiga, retseptda ko'rsatilgan miqdorda kiritilishi, ohorning haddan tashqari suyultirilishiga olib keladi va texnologik jihatdan zarur bo'lgan yelimlash darajasiga erishilmaydi.

Paxta iplari uchun ohorlovchilarni ishlab chiqarishning ma'lum usuli mavjud bo'lib, bu yerda prototip sifatida olingan bo'lib, u reaktoring 2/3 qismigacha suv bilan to'ldirib, tegishli miqdorda kraxmal solinadi, 5 daqiqa davomida aralashtirib bir xil kraxmal suspenziyasi hosil bo'lgunga qadar ushlab turiladi. Harorat 45-50°C yetganda kerakli miqdorda natriy gidroksid qo'shiladi. Olingan kraxmal suspenziyasi 85-90°C haroratgacha qizdiriladi va xloramin qo'shiladi. Olingan ohor ushbu haroratda 20 daqiqa davomida germetik holda saqlanadi. Keyin MG shlixtol 10 daqiqa davomida aralashtirib, haroratni 90-95°C da ushlab turiladi. Olingan ohor ipni ohorlashga beriladi. Ushbu usulning, shuningdek, ma'lum bo'lgan usullarning kamchiliklari – ohor tayyorlashning murakkabligi va davomiyligi hamda yuqori energiya sarfi, oziq-ovqat mahsuloti hisoblangan kraxmal sarf miqdorining yuqoriligi, shuningdek, xlorni zararli bo'lgan qimmat xloraminning ko'p iste'mol qilinishi hisoblanadi.

Ixtironing maqsadi ohorlangan kalava ipning mustahkamlik ko'rsatkichlarini yaxshilash va ohorlovchilarni olish vaqtini qisqartirish bilan ohorlovchi kompozitsiyani ishlab chiqarish usulini ishlab chiqishdan iborat.

Bu yerda mustahkamlik xarakteristikalarini ohor bilan ishlov berilgan kalava ipning yumshoq ipga nisbatan kuchga chidamliligi hamda cho'zilishga barqarorligini anglatadi.

Taklif etilayotgan usul yordamida yuqoridagi muammo 3,5-4,0% og'irlikdagi guruch kraxmalidan foydalanish orqali hal qilinadi. Kraxmalning 3,5-4,0 g bo'lgan massasi 95,48-95,77 g suvda eritiladi, bir xil massa olingunga qadar 5-7 daqiqa davomida aralashtiriladi, so'ngra 0,4-0,5 g miqdorida polivinilatsetat, 0,02-0,03 g miqdorida kaliy polifosfat va 0,1-0,2 g K-4 preparati (61% karboksil, 36% amid va 3% nitril funksional guruhlarini o'z ichiga olgan poliakrilonitril sovunlash

mahsulotlari aralashmasi) qo‘shiladi. Doimiy aralashtirib turgan holda suspenziya 85°C haroratgacha qizdiriladi, ushbu haroratda 10-15 daqiqa davomida saqlanadi.

Ohor olish usulining bosqichlari:

1. Kraxmal suspenziyasini tayyorlash - 95,48-95,77 g og‘irlikdagi suvga 3,5-4,0g guruch kraxmali qo‘shiladi va 5-7 daqiqa aralashtiriladi.

2. Bir vaqtning o‘zida modifikatorlar 0,4-0,5 g polivinilatsetat, 0,02-0,03 g kaliy polifosfat va 0,1-0,2 g K-4 preparati qo‘shiladi. (pH-10-12).

3. Uzluksiz aralashtirilgan holda suspenziya 85°C haroratda 10-12 daqiqa qizdiriladi va shu haroratda yana 15-20 daqiqa germetik holatda aralashtirmasdan ushlab turiladi va tayyor ohor ohorlash mashinasiga yuboriladi.

Da’vo qilingan usulning asosiy xususiyatlari, prototip usulidan ajralib turadigan xususiyatlari nuqtayi nazaridan da’vo qilingan usul quyidagi shaklga ega: suvda kraxmal suspenziyasini tayyorlash, qizdirish, strukturani shakllantirishni o‘z ichiga olgan ohorlovchi kompozitsiyani ishlab chiqarish usuli, doimiy aralashtirish, polivinilatsetat, kaliy polifosfat va K-4 preparati guruch kraxmal suspenziyasiga bir vaqtning o‘zida qo‘shiladi, komponentlar nisbati quyidagicha:

Guruch kraxmal - 3,5-4,0% mass.

Polivinilatsetat - 0,4-0,5% mass.

Kaliy polifosfat - 0,02-0,03% mass.

Preparat K-4 (pH-10-12) - 0,1-0,2% mass.

Suv - 95,48-95,77% mass.

Olingan natijalar (1-jad.) shuni ko‘rsatadiki, da’vo qilingan usul bilan olingan ohor prototip usuli bilan olingan ohorga nisbatan inkor etilmaydigan afzalliklarga ega.

1-jadval

Da’vo qilingan usul va prototipning qiyosiy ko‘rsatkichlari

	Kraxmalning parchalanish darajasi, %	Ohorning nisbiy qovushqoqligi, Pa·s	Ohorlangan ipning uzilishi, uzil/metr	Yukdagi mustahkamlikning ortishi, %	Cho‘zilishdagi uziluvchanlik, %	Yelimlash, %
1	99,2	1,99	0,07	41,2	9,1	6,6
2	98,7	2,06	0,10	44,6	9,7	6,8
Prototip	90,0	1,86	0,14	35,0	10,0	6,5

Da’vo qilingan usul bo‘yicha ohorlovchi kompozitsiyani ishlab chiqarish arzonroq, chunki da’vo qilingan usulda kraxmaldan foydalanish prototipga nisbatan kamayadi. Da’vo qilingan usulda ohor tayyorlashning vaqti 70 daqiqadan 35-45 daqiqagacha qisqaradi. Tavsiya etilgan kompozitsiyadan kalava ipni ohorlashda foydalanish bir qator afzalliklarga ega, xususan:

Ushbu preparatlarning plyonkalari yetarli darajada mexanik mustahkamlikka va yuqori elastik xususiyatlarga ega bo‘lishi ohorlovchi eritmalarning tarkibini, ya’ni kraxmal sarfini kamaytirish imkonini beradi;

Ipning o‘rtacha mustahkamligini 10-15%ga oshiradi, bu esa to‘quv mashinasida ipning uzilishlar sonining kamayishiga olib keladi;

Ohorlovchilarni tayyorlash texnologiyasi soddalashadi;

Da'vo qilingan usul va prototip usuli o'rtasidagi asosiy qiyosiy xarakteristikalari 1-jadvalda aks ettirilgan.

Da'vo qilingan usulning samaradorligi quyidagi misol bilan ko'rsatilgan: 720 litr sovuq suv solingan reaktorga 26, 25 kg guruch kraxmalini aralashtirib, 6 daqiqa davomida aralashtiriladi, uning ustiga 3,0 kg polivinilatsetat, 0,2 kg kaliy polifosfat va 1,0 kg K-4 preparati solinadi. Harorat 85°C ga qadar ko'tariladi va 12 daqiqa davomida aralashtiriladi. Eritma to'liq tayyor bo'lishi uchun yana 15 daqiqaga aralashtirilmagan holatda saqlanadi. Olingan ohorlovchilarni sinovdan o'tkazish quyidagi natijalarni berdi: ipning yukdagi mustahkamligi 41,2% gacha ko'tarilishi, ohorning nisbiy qovushqoqligi - 1,99 Pa·s, kraxmalning parchalanish darajasi 97,8-99,2%, yelimlash ko'rsatkichi 5,9-6,6%, to'quv dastgohlarida ohorlangan kalava iplarning uzilishlar soni 0,07- 0,10 uzil/metr.

Shunday qilib, ohorlovchi kompozitsiyaning yangi retsepti prototip usulida olingan ohorlovchi kompozitsiyaga nisbatan ham, fizik-kimyoviy ko'rsatkichlar bo'yicha ham ohorlovchi kompozitsiyaning asosiy tarkibiy qismi – kraxmalni tejash nuqtayi nazaridan afzalliklarga ega. Sanoat tajriba-sinov natijalariga ko'ra, tavsiya etilgan ohorlovchi kompozitsiyadan foydalanganda roliklar va quritish barabanlarida har xil turdagi yopishishlar hosil bo'lmasligi isbotlangan. To'quv dastgohlarida ohorlangan kalava iplarning uzilishlar soni 0,17-0,20 uzil/metrdan 0,06-0,10 uzil/metrgacha kamayadi.

Ixtiro formulasi

Ohorlovchi kompozitsiyani ishlab chiqarish usuli, shu jumladan, kraxmalni suvdagi suspenziyasini tayyorlash, qizdirish, strukturani shakllantirish, prototipdan farq qiladigan tomoni tayyor mahsulotni ishlab chiqarishda modifikatorlar polivinilatsetat, kaliypolifosfat va K-4 preparati guruch kraxmali suspenziyasiga bir vaqtning o'zida, doimiy aralashtirib turgan holda qo'shiladi, 10-12 daqiqa davomida 85°C haroratgacha qizdiriladi va yana 15-20 daqiqa davomida shu haroratda saqlanadi, komponentlar nisbati quyidagicha:

Guruch kraxmal - 3,5-4,0% mass. Polivinilatsetat - 0,4-0,5% mass.

Kaliy polifosfat - 0,02-0,03% mass. Preparat K-4 (pH-10-12) - 0,1-0,2% mass.

Suv - 95,48-95,77% mass.

2.O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligining "Shlixtalovchi tarkibni olish usuli"(№ IAP 7606) ixtiro patenti.

Foydalanish sohasi: to'qimachilik sanoati, paxta ipini shlixtalash uchun.

Vazifasi: paxta ipidan guruch kraxmali asosida ko'rsatkichlari va adgezion xususiyatlari yuqori bo'lgan shlixtalovchi tarkib olish usulini ishlab chiqish, shixtada kraxmal ulushini kamaytirish, shixta ishlab chiqarishda energiya sarfini kamaytirish.

Ixtiro mohiyati: paxta ipi uchun shlixtalovchi tarkib olish usuli suvli kraxmal suspenziyasini tayyorlash va olingan suspenziyani kleysterizatsiya haroratigacha isitishni o'z ichiga olgan bo'lib, tarkibida 3,5 mas.% guruch kraxmali bo'lgan suvli suspenziyaga aralashtirib turib bir paytning o'zida 0,3mas.% polivinil spirit, 0,2 mas.% akril emulsiyasi va 0,01 mas.% o'yuvchi natriy (pH-8,5-9,0) qo'shiladi, hosil bo'lgan suspenziya 10-12 daqiqa davomida 85°C haroratgacha isitiladi va shu haroratning o'zida yana 10-15 daqiqa davomida saqlab turiladi.

Ixtiro ohorlovchi kompozitsiyani ishlab chiqarish texnologiyasiga, xususan, paxta iplarini ohorlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan kompozitsiyani ishlab chiqarish usuliga tegishli.

Bu yerda analog sifatida olingan makkajo'xori yoki kartoshka kraxmalining suvda eruvchan polimerlar, natriy gidroksid, xloramin va suv bilan aralashmasini tayyorlash orqali ohorlovchilarni ishlab chiqarishning ma'lum usuli mavjud.

Aralashtirish quyidagicha amalga oshiriladi: birinchi navbatda 25-30°C da aralashtirib turgan holda kraxmal suspenziyasi tayyorlanadi, keyin kaustik soda qo'shiladi va 30-40 daqiqa davomida aralashtiriladi. Bu kraxmal donalarining bo'kishiga olib keladi. Keyin suspenziya 40-50°C da qizdirib xloramin qo'shiladi. Keyinchalik, polimer qo'shimchasi MG qo'shib 10 daqiqa davomida aralashtiriladi va harorat 90-95°C ga yetgunga qadar qizdiriladi. 20 daqiqa davomida turg'un holda saqlanadi. Shundan so'ng, ohor tayyor deb hisoblanadi.

Ushbu usulning kamchiliklari – ohor olishning qiyinligi, kraxmalni pishirish jarayonining uzoq davom etishi, ohor tayyorlash uchun yuqori energiya sarfi, ohorning sintetik bo'lmagan polimer komponentlari – kraxmal va kraxmal hosilalarining sarfi yuqoriligi. Aralashmaning tarkibiy qismlari bir vaqtning o'zida kiritilmaydi(RU 2129178).

Paxta matolari uchun ohorlovchilarni ishlab chiqarishning ma'lum usuli mavjud bo'lib, bu yerda prototip sifatida olingan, unda reaktor 2/3 qismigacha bo'lgan hajmda suv bilan to'ldiriladi, tegishli miqdorda kraxmal solinadi. Shundan so'ng oksidlovchi reagent, monoxloramin qo'shiladi. Olingan kraxmal suspenziyasi 5-10 daqiqa davomida aralashtiriladi va 85-90°C suvli suspenziyasi jelatinlanish haroratiga qadar qizdiriladi, tarkibida 3,81-5,02% mass. kraxmal va 0,0014-0,0022% mass. kaliy permanganat, 0,018-0,033% mass. xlorid kislota qo'shiladi va qaynaguncha qizdiriladi, so'ngra 20-30 daqiqa ushlab turiladi, shundan so'ng 0,131-0,381% mass. karboksimetilsellyuloza va 0,08% mass. sirt faol moddalar qo'shiladi va belgilangan haroratda 30-40 daqiqa ushlab turiladi.

Ushbu usulning kamchiligi – ohor tayyorlashning murakkabligi, davomiyligi va yuqori energiya sarfi hisoblanadi. Bundan tashqari, kislotali reagentlar yordamida tayyorlangan ohorlovchilar paxta ipiga zarar yetkazishi mumkin.

Ixtironing maqsadi yuqori yelimlash xususiyatiga ega guruch kraxmaliga asoslangan ohorlovchi kompozitsiyani ishlab chiqarish, ohordagi kraxmal ulushini kamaytirish va ohor ishlab chiqarishda energiya sarfini kamaytirish usulini ishlab chiqishdan iborat.

Muammo guruch kraxmalini 3,5-4% mass. miqdorida ishlatish orqali hal qilinadi. Kraxmal 95,9-95,5% mass. og'irlikdagi suvda aralashtiriladi, bir xil kraxmal suspenziyasi olingunga qadar aralashtiriladi. Uning ustiga doimiy aralashtirgan holda 0,3-0,2 massali polivinil spirti va akril emulsiya aralashmasi 1,5:1 nisbatda solinadi, kleysterizatsiya jarayonini amalga oshirish uchun 0,01% mass. og'irlikdagi natriy gidroksid (pH-8,5-9,0) qo'shiladi va harorat 85°C yetgunga qadar qizdiriladi va shu haroratda 10-15 daqiqa davomida saqlanadi.

Ohorlovchi tarkibini olish usulining bosqichlari:

1. Kraxmal suspenziyasini tayyorlash - 3,5-4% mass. guruch kraxmalini 95,8-96,3% mass. suv bilan aralashtirish.

2. Olingan suspenziyaga mos ravishda 1,5:1 nisbatda massasi 0,3 -0,2% polivinil spirti va akril emulsiya aralashmasi qo'shiladi va kleysterizatsiya uchun 0,01 massa miqdorida natriy gidroksid qo'shiladi (pH-8,5-9, 0), doimiy aralashtirish bilan suspenziya 10-12 daqiqa davomida 85°C haroratgacha qizdiriladi va bu haroratda yana 10-15 daqiqa ushlab turiladi.

Da'vo qilingan usulning asosiy xususiyatlari, uning prototip usulidan ajralib turadigan xususiyatlari shundaki, da'vo qilingan usul quyidagicha amalga oshiriladi: ohor tarkibini olish usuli, shu jumladan suvda kraxmal suspenziyasini tayyorlash, qizdirish, kleysterizatsiyalash. Guruch kraxmali suspenziyasiga bir vaqtning o'zida ishqor va 1,5:1 nisbatda polivinil spirti va akril emulsiya qo'shilishi bilan prototipdan farq qiladi. Barcha komponentlar quyidagi nisbatda aralashtiriladi:

Guruch kraxmal - og'irligi 3,5-4% mass.

1,5:1 nisbatda polivinil spirti va akril emulsiya aralashmasi, mos ravishda - 0,3 -0,2 % mass.

Ishqor (pH-8,5-9,0) - og'irligi 0,01% mass.

Suv - 95,9-95,5% mass.

Ushbu usul bilan olingan ohorlovchi kompozitsiya paxta iplarini ohorlash uchun sinovdan o'tkazildi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, da'vo qilingan usul bilan olingan ohor, prototip usuli bilan olingan ohorga nisbatan inkor etilmaydigan afzalliklarga ega. Da'vo qilingan usul bo'yicha ohorlovchi kompozitsiyani ishlab chiqarish arzonroq, chunki da'vo qilingan usulda kraxmaldan foydalanish miqdori prototipga nisbatan kamayadi. Da'vo qilingan usulda ohorning tayyorlash vaqti 60 daqiqadan 25-40 daqiqagacha qisqaradi. Taklif etilgan usulda kraxmal sarfi prototip usuliga nisbatan sezilarli darajada kamaydi. Ixtiro ohorlangan kalava ip sirtida mustahkam plyonkaning hosil bo'lishi kalava iplarining uzilishlar sonini kamayishiga olib keladi, ya'ni yukdagi mustahkamligi prototipga qaraganda yuqori bo'ladi.

Da'vo qilingan usul va prototip usuli o'rtasidagi asosiy qiyosiy xarakteristikalar 2-jadvalda aks ettirilgan.

Da'vo qilingan usulning samaradorligi quyidagi misol bilan ko'rsatilgan: 480 litr sovuq suv, 17,5 kg guruch kraxmal, 1,5 kg polivinil spirt va 1 kg akril emulsiya va 50 g miqdorida natriy gidroksidni o'z ichiga olgan komponentlar reaktorga aralashtirgan holda solinadi. Olingan suvli kraxmal suspenziyasi 12 daqiqa davomida 85°C jelatinlanish haroratiga qadar qizdiriladi. Belgilangan jelatinlanish haroratiga erishgandan so'ng, aralashtirish bilan suspenziya yana 15 daqiqa ushlab turiladi. Shundan so'ng, reaktordan ohorlovchilar ipni ohorlash uchun ohorlash mashinasiga yuboriladi. Olingan ohorni sinovdan o'tkazish quyidagi natijalarni berdi: ipning yukdagi mustahkamligining ortishi 11%, ohorning nisbiy qovushqoqligi 1,98 Pa·s.

Shunday qilib, yangi ohorlovchi kompozitsiya prototip usulida olingan ohorlovchi kompozitsiyaga nisbatan ham, fizik-kimyoviy ko'rsatkichlar bo'yicha ham, ohorni tayyorlashda sarflangan vaqtning tejash nuqtayi nazaridan ham afzalliklarga ega.

Da'vo qilingan usul va prototipning qiyosiy ko'rsatkichlari

	Kraxmalning parchalanish darajasi, %	Ohorning nisbiy qovushqoqligi, Pa·s	Ohorlangan ipning uzilishi, uzil/metr	Yukdagi mustahkamlikning ortishi, %	Cho'zilishdagi uziluvchanlik, %
1	94,4	1,98	0,08	11	7,6
2	92,3	1,82	0,11	11,3	6,5
Prototip	90,3	1,75	0,13	10,9	7,0

IXTIRO FORMULASI

Ohorlovchi kompozitsiyani ishlab chiqarish usuli, shu jumladan suvda kraxmal suspenziyasini tayyorlash, qizdirish, kleysterizatsiyalash prototipdan farq qiladi, chunki guruch kraxmal suspenziyasiga bir vaqtning o'zida 1,5:1 nisbatda polivinil spirti va akril emulsiya aralashmasi qo'shiladi. Mos ravishda, natriy gidroksid qo'shiladi, 10-12 daqiqa davomida 85°C haroratgacha qizdiriladi va bu haroratda yana 10-15 daqiqa ushlab turiladi. Barcha komponentlar quyidagi nisbatda aralashtiriladi:

Guruchkraxmal - 3,5-4% mass.

1,5:1 nisbatda polivinil spirti va akril emulsiya aralashmasi, mos ravishda - 0,25-0,30% mass.

Ishqor (pH-8,5-9,0) – 0,001% mass.

Suv – 95,8-96,3% mass.

3. O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligining "Paxtadan yigirilgan iplar uchun ohor" (№ IAP 7846) ixtiro patenti.

Foydalanish sohasi: Ixtiro to'qimachilik ishlab chiqarishiga taalluqli bo'lib, undan to'qimachilik korxonalarining tayyorlash bo'limlarida paxtadan yigirilgan iplarga ohor berishda foydalanish mumkin.

Vazifasi: Paxtadan yigirilgan iplarga ohor berish uchun texnik vositalar arsenalini yana bir bor ohor tarkibi bilan kengaytirish, ohorning fizik-mexanik tavsif ko'rsatkichlarni oshirish; energiya sarfini pasaytirish.

Ixtiro mohiyati: Paxtadan yigirilgan iplar uchun ohor taklif qilingan bo'lib, u guruch kraxmali, uyuvchi natriy, poliakril kislotasining hosilasi va suvni tarkibiga soladi, poliakril kislotasining hosilasi sifatida natriy poliakrilatni va qo'shimcha ravishda monoxlorsirka kislotasini komponentlarning quyidagi nisbatida, massa foizi hisobida o'z ichiga oladi: guruch kraxmali -3,1-3,5; monoxlorsirka kislotasi- 1,27-1,36; uyuvchi natriy – 0,30-0,38; natriy poliakrilati-0,17-0,19; texnologik suv -100 gacha

Kalava ip ohorining tarkibi ma'lum bo'lib, bu yerda prototip sifatida olingan, shu jumladan, guruch kraxmal aralashmasi - 3,5-4 og'irlik%, polivinil spirti va akril emulsiya aralashmasi mos ravishda 1,5:1 nisbatda - 0,3-0,2% mass., natriy gidroksid (pH-8,5-9,0) - 0,01% mass., suv - 95,9-95,5% mass (UZ IAP 07606).

Ushbu kompozitsiyaning kamchiliklari ularning umumiylikdagi texnologik xususiyatlarning kamayishi, ushbu ohorni olishda energiya sarfini oshirishdir.

Ixtironing maqsadi paxta iplarini boshqa ohorlovchi tarkib bilan ohorlash uchun texnik vositalar arsenalini kengaytirish, prototipga nisbatan talab qilingan ohorning umumiy fizik va texnik xususiyatlarini oshirish va talab qilingan ohorlovchi olishda energiya sarfini kamaytirishdan iborat.

Muammo shundan kelib chiqadiki, da'vo qilingan ohor tarkibida guruch kraxmal, natriy gidroksid va suv mavjud bo'lib, u qo'shimcha ravishda monoxlorsirka kislota va natriy poliakrilatni o'z ichiga oladi, unda quyidagi tarkibiy qismlar, og'irlik%:

Guruch kraxmal - 3,1-3,5% mass.

Monoxlorsirka kislota - 1,27-1,36% mass.

Ishqor - 0,30-0,38% mass.

Natriy poliakrilat - 0,17-0,19% mass.

Qolgani suv – 95,1% mass.

Guruchli kraxmali – tabiiy polimer bo'lib, guruchning asosiy tarkibiy qismidir. 100 g guruchda 49,19 g kraxmal bor.

Monoxlorsirka kislota. Kimyoviy formulasi CH_2ClCOOH , rangsiz kristallar. Bu sirka kislotasi bo'lib, unda metil guruhining bir vodorod atomi xlor atomi bilan almashtiriladi.

Kaustik natriy yoki natriy gidroksidi, kaustik soda sifatida tanilgan, NaOH kimyoviy formulasiga ega bo'lgan noorganik birikma. Bu natriy kationlari Na^+ va OH^- gidroksid anionlaridan tashkil topgan oq rangli qattiq birikma.

Natriy poliakrilat - bu modda, organik polimer, poliakril kislotaning natriy tuzi, kimyoviy formulasi $[-\text{CH}_2-\text{CH}(\text{COONa})-]_n$. Bu asosiy zanjirda manfiy zaryadlangan karboksil guruhiga ega anion polielektrolitdir.

Ixtiro quyidagi afzalliklarni beradi:

- ohor tayyorlash bosqichida kraxmalning kleysterizatsiya darajasini 4,5% gacha oshirish;

- ipning mustahkamligini oshirish imkonini beradi, ya'ni kalava ip sirtida hosil bo'lgan mustahkam plyonka to'quv dastgohida kalava ipning uzilishini 2 martadan ortiq kamaytiradi;

- ohorlangan ipning cho'zilishdagi uziluvchanligini kamaytirish va uning elastikligini oshirish;

- past navli ipning uzilishini 0,05 uzil/metr gacha kamaytirish, bu uni to'quvda birinchi navli ip sifatida qayta ishlash imkonini beradi;

- ohorlovchilarni quritish barabanlarida yopishmasligini ta'minlash hamda iplarni bir-biriga yelimlanishini oldini olish.

Ixtironi takrorlash imkoniyatini tasdiqlovchi ma'lumotlar.

Ohor uchun quyidagi komponentlar qo'llaniladi:

Guruch kraxmali - GOST 7698-93

Monoxlorsirka kislota - GOST 5836-68

Ishqor (natriy gidroksid) - GOST 2263-79

Natriy poliakrilat - GOST TSh 6.1-00203849-43.1995

3,1-3,5 g og'irlikdagi guruch kraxmal o'lchab olinib, 94,57-95,16 g suvda eritiladi, bir jinsli massa olingunga qadar 3-5 daqiqa davomida aralashtiriladi, uning ustiga 1,27-1,36 g monoxlorosirka kislotasi qo'shiladi hamda 0,3-0,38 % mass. natriy gidroksidi va 0,17-0,19% mass. miqdoridagi natriy poliakrilat qo'shiladi, doimiy aralashtirgan holda suspenziya 70°C haroratgacha qizdiriladi, berilgan haroratda 5-10 daqiqa saqlanadi. Ohor tayyor hisoblanadi va kalava ipni ohorlash uchun ohorlash mashinasiga yuboriladi.

Ohor tarkibini olish usulining bosqichlari:

1. Kraxmal suspenziyasini tayyorlash - 3,1-3,5% mass. guruch kraxmali 94,57-95,16% mass. miqdordagi suvga qo'shiladi, 3-5 daqiqa davomida aralashtiriladi.

2. Olingan suspenziyaning umumiy massasiga bir vaqtning o'zida 1,27-1,36% mass. monoxlorosirka kislotasi, 0,3-0,38% mass. natriy gidroksid va 0,17-0,19% mass. natriy poliakrilat qo'shiladi (pH 8,0-8,58 oralig'ida bo'lishi kerak).

3. Uzluksiz aralashtirgan holda suspenziya 5-10 daqiqa davomida aralashtiriladi va harorat 70°C haroratgacha qizdiriladi va shu haroratda yana 10-15 daqiqa ushlab turiladi. Hosil bo'lgan ohor yetarlicha qovushqoqlikka ega bo'lgan jelga o'xshash eritmasi olinadi, shundan so'ng u ohorlash jarayoniga beriladi.

Da'vo qilingan ohor olish usulining asosiy xususiyatlari nuqtayi nazaridan, uning prototipidan ajralib turadigan xususiyatlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, u quyidagi shaklga ega: guruch kraxmal, natriy gidroksidi va suvni o'z ichiga olgan paxta iplari uchun ohorlovchilar olish prototipidan qo'shimcha ravishda farqlanadi, tarkibida monoxlorosirka kislota va natriy poliakrilat mavjud bo'lib, quyidagi tarkibiy qismlardan iborat%:

Guruch kraxmali - 3,1-3,5% mass.

Monoxlorosirkakislota - 1,27-1,36% mass.

Kaustik natriy - 0,30-0,38% mass

Natriy poliakrilat - 0,17-0,19% mass.

Qolgani suv

Ushbu usul bilan olingan ohorlovchi kompozitsiya kalava ipning texnologik xususiyatlari bo'yicha ohorlovchi komponentlarning tarkibini va uning qizdirish haroratini o'zgartirish bo'yicha sinovdan o'tkazildi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, da'vo qilingan usul bilan olingan ohor prototip usuli bilan olingan ohorga nisbatan inkor etilmaydigan afzalliklarga ega.

Da'vo qilingan usul bo'yicha ohorlovchi kompozitsiyani ishlab chiqarish arzonroq, chunki da'vo qilingan usulda prototipga nisbatan kraxmaldan foydalanish kamayadi, ohorni ishlab chiqarish jarayonining harorati 5-10°C past bo'ladi, bu juda muhim. Sanoat miqyosida ishlab chiqarish uchun da'vo qilingan usulda ohorlovchilarni tayyorlash vaqti 30 daqiqadan 20 – 25 daqiqagacha kamaytirish imkonini beradi.

Takomillashtirilgan texnik xususiyatlar va da'vo qilingan ohor tayyorlash usuli quyidagi misol bilan ko'rsatilgan: 23,25 kg (3,1 % og'irlik) guruch kraxmalini 750 litr sovuq suv solingan reaktorga aralashtirib, 3 daqiqa davomida aralashtiriladi, 9,52 kg (1,27 g) monoxlorosirka kislota, 2,25 kg (0,30 og'irlik%) natriy gidroksid va 1,28 kg (0,17 og'irlik%) natriy poliakrilat kiritildi. Haroratni – 75°C ga ko'tariladi va 8-10 daqiqa davomida aralashtiriladi. Eritma to'liq tayyor bo'lgunga qadar yana 10

daqiqaga qoldiriladi. Olingan ohorni sinov ko'rsatkichlari quyidagi natijalarni berdi: yukdagi uzilish 23,4 cH, uzilishdagi cho'zilish - 9,4%, ohorning nisbiy qovushqoqligi - 2,02 Pa s, kraxmalning parchalanish darajasi 98,2%, to'quvda ipning uzilishi 0,06 uzil/metr.

3-jadval

Paxta iplarini ohorlash va ohorlashning texnologik xususiyatlarining qiyosiy ko'rsatkichlari

	Kraxmalning parchalanish darajasi, %	Ohorning nisbiy qovushqoqligi, Pa·s	Ohorlangan ipning uzilishi, uzil/metr	Yukdagi mustahka mlikning ortishi, %	Cho'zilish dagi uziluvcha nlik, %
1	98,2	2,02	0,06	23,4	9,4
2	97,6	1,98	0,08	22,8	7,3
3	98,8	2,11	0,05	24,6	8,1
Proto- tip	94,4	1,98	0,08	11,4	6,8

Shunday qilib, texnik xususiyatlarning umumiylikida ohor tarkibining yangi retsepti prototipning ohori bilan solishtirilganda afzalliklarga ega, u ishlab chiqarishda tejamkor va kamroq energiya sarflanadi. Ohorlovchi kompozitsiyalar assortimenti yana bir yuqori samarali ohorlovchi bilan to'ldirildi, bu ohorlovchi vositalarining arsenalini kengaytiradi va ohorlashning texnik xususiyatlariga muvofiq keng qamrovli imkoniyatini yaratadi.

Ixtiro formulasi

Tarkibida guruch kraxmali, natriy gidroksid va suv bo'lgan suspenziya tarkibiga qo'shimcha ravishda monoxlorsirka kislota va natriy poliakrilatdan iborat bo'lgan quyidagi ohor tarkibi ishlab chiqildi, uning tarkibi quyidagicha, og'irligi %:

Guruch kraxmal - 3,1-3,5% mass.

Monoxlorsirka kislota - 1,27-1,36% mass.

Ishqor - 0,30-0,38% mass.

Natriy poliakrilat - 0,17-0,19% mass.


Qolgani suv

Ohorlovchi polimerlarning zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida tahlili

Ohorlovchi polimerlarning IQ-spektroskopik tahlili. Ushbu ohorlovchi polimerlarning 3 xil tarkibiy qismi: organik tabiiy polimerlar, vinil guruhi saqlagan monomerlar va KMS-Na tuzi hamda polifosfat kislotasining natriyli tuzi saqlagan turli miqdoriy (%) nisbatlardagi qattiq aralashmasidan iborat. Uning tarkibidagi alohida komponentlarning mavjudligi IQ va YAMR spektroskopiya (RFA) usullari bilan tadqiq etilgan va isbotlangan.

Kompozitning tarkibi va ularning mikroskopik (yuzasi) tuzilishi skanerlovchi elektron mikroskopiya usuli bilan tadqiq etilib, komponentlar tarkibi C, O, N, Na, K, P elementlar tahlili bilan aniqlangan. (1-rasm), kompozitsiya tarkibidagi polimerlar orasida molekulalararo vodorod bog‘ni yuzaga keltirgan –ON guruhlar 3295-3273 sm^{-1} soha oraliqlarida tegishli o‘rtacha intensivlikdagi valent tebranishi namoyon bo‘lgan. Shu guruhning deformatsion tebranishi chiziqlari esa 669 sm^{-1} sohada kuzatildi. Shuningdek, kompozitsiya tarkibidagi kraxmal va KMS-Na tuzi tarkibidagi –OH guruhlar bilan akrilamid molekulasi tarkibidagi –NH₂ guruhi 3326-3307 sm^{-1} oraliqlarida valent assimetrik tebranishlari namoyon bo‘lgan.

Olingan kompozitning IQ-spektrida kraxmal, akrilonitril va akrilamid molekulasi tarkibidagi –CH bog‘i guruhlarining 2918 sm^{-1} sohalarda assimetrik tebranishlari va 1147-1078 sm^{-1} sohalarda o‘rtacha intensivlikdagi deformatsion tebranishlariga xos yutilish chiziqlari kuzatildi. 2869-2851 sm^{-1} sohalarda kompozit tarkibidagi –CH₂ guruhlarining assimetrik valent yutilish chizig‘i mavjud. 2259 sm^{-1} sohada kompozit tarkibidagi akrilonitrilga tegishli bo‘lgan –CN nitril guruhining intensiv valent tebranish chizig‘i kuzatildi. 1230 sm^{-1} sohada kompozit tarkibidagi oddiy efir –CH–O–CH– guruhlarining valent tebranishi yutilish chizig‘i va shu guruhning deformatsion tebranishiga xos yutilish chizig‘i 933 sm^{-1} da kuzatildi. 1734 sm^{-1} sohada esa >C=O guruhining assimetrik valent yutilish chiziqlari kuzatildi. 1640 sm^{-1} sohada akrilonitril, metilakril efiri va akrilamid molekulasi tarkibidagi –C=C– bog‘lari tegishli bo‘lgan valent tebranish chiziqlari mavjud.




1-rasm. Kraxmal+akril emulsiyasi Na-KMS asosidagi ohorlovchi polimerlarning IQ-spektri

Shunday qilib, yuqorida qayd etilgan yutilish sohalari kraxmal, KMS-Na, metilakrilefir, akrilonitril va akrilamididan iborat bo‘lgan kompozitsiyaning komponentlar tarkibini tasdiqlaydi.

Ohorlovchi polimerlarning YaMR-spektr tahlili. Kompozitsiyaning NYaMR-spektrini tahlil qilganda, proton signallari (600 MHz, Xloroform- CDCL₃ m.u., J/Gs) kompozitsiya tarkibidagi kraxmal molekulasida 1-o‘rinda turgan vodorodlar 5.35-5.30 m.u. va 4.99-4.96 m.u., kraxmal molekulasida tashqi -CH₂ – OHoksimetilen guruhi proton .94-3.51 m.u., molekulada 3-o‘rinda turgan vodorod atomlari 3.88-3.65 m.u., va 3.31-3.30 m.u., molekulada 4-o‘rinda turgan vodorod

atomlari 3.62-3.54 m.u., molekulada 5-oʻrinda turgan vodorod atomlari 4.15-3.75 m.u., va 3.26-3.25 m.u., molekulada 6-oʻrinda turgan vodorod atomlari 3.36 m.u., 3.16 m.u., va 3.06-3.05 m.u., kraxmal molekulasida ichki –OH guruhlariga tegishli vodorod atomlari 4.15 m.u., 3.75 m.u., va 3.19 m.u., molekulaning tashqi –OH guruhlariga tegishli vodorod atomlari esa 4.52 m.u., 4.10 m.u., 3.90 m.u., 3.69 m.u. va 3.54 m.u. oraliqlarida tegishli signallarni koʻrsatdi.


Ohorlovchi polimerlar tarkibidagi akrilamid molekulasi tarkibidagi $=CH_2$ guruhi vodorod atomlari 5.90-5.71 m.u., $=CH-$ guruhidagi vodorod atomlari 6.41 m.u., molekuladagi $-NH_2$ guruhlariga tegishli vodorod atomlari esa 7.31 m.u. larida tegishli signallarni koʻrsatdi. Shuningdek, akrilamid molekulasi tarkibidagi $=CH_2$ guruhidagi uglerod atomlari 127.30 m.u., $=CH-$ guruhidagi uglerod atomlari 126.85 m.u., karbonil $>C=O$ guruhidagi uglerod atomlari esa 170.12 m.u. larda tegishli signallarni berdi.



2-rasm. Kraxmal+akril emulsiyasi Na-KMS asosidagi ohorlovchi polimerlarning 1H YaMR-spektri


3-rasm. Kraxmal+akril emulsiyasi Na-KMS asosidagi ohorlovchi polimerlarning ^{13}C YaMR-spektri

Kompozit tarkibidagi Na-KMS molekulasida ekzosiklik $-CH_2-O-CH_2-$ oddiy efir guruhi vodorod atomlari 4.70-4.67 m.u. va 3.94-3.51 m.u., molekulada 3-oʻrinda turgan vodorod atomlari 3.88-3.65 m.u., va 3.31-3.30 m.u., molekulada 4-oʻrinda turgan vodorod atomlari 3.62-3.54 m.u., molekulada 5-oʻrinda turgan vodorod atomlari 4.15-3.75 m.u., va 3.26-3.25 m.u., molekulada 6-oʻrinda turgan vodorod atomlari 3.36 m.u., 3.16 m.u., va 3.06-3.05 m.u., Na-KMS molekulasida ichki –OH guruhlariga tegishli vodorod atomlari 4.15 m.u., 3.75 m.u., va 3.19 m.u., molekulaning tashqi –OH guruhlariga tegishli vodorod atomlari esa 4.52 m.u., 4.10 m.u., 3.90 m.u., 3.69 m.u. va 3.54 m.u. oraliqlarida tegishli signallarni koʻrsatdi. Olingan spektrlar tahlili kompozitsiya komponentlar tarkibini tasdiqlaydi.




4-rasm. Kraxmal+akril emulsiyasi Na-KMS asosidagi ohorlovchi polimerlarning rentgen tahlili


Yuqoridagi rentgenogrammada ko‘rinib turibdiki, kompozitsiyada kraxmal bilan bog‘langan joylar, akril qatroni (akrilonitril, akril ester, akril kislota amidi) va natriy karboksimetilsellyuloza alohida ko‘rsatilgan. Ularning ulushi mos ravishda 80,9%, 4,9%, 2,8%, 2,4%, 1,8%, 7,2%ni tashkil etdi.



5–rasm. Kraxmal+akril emulsiyasi Na-KMS asosidagi ohorlovchi polimerlarning skanerlovchi elektron mikroskopdagi tasvirlari



6–rasm. Kraxmal+akril emulsiyasi+Na-KMS asosidagi ohorlovchi polimerlarning skanerlovchi elektron mikroskopda olingan element analizi



7-rasm.Tarkibida kraxmal+akrilemulsiyasi+KMS-Na saqlagan Ohorlovchi polimerlarning dervotogrammasi

- 1-termogravimetrik analiz egri chizig‘i (TGA),
- 2- differensial termik analiz egri chizig‘i (DTA),

tayyorlangan kompozitsiyaning dervotogrammasi bo'lib, u 2 ta egri chiziqdan iborat. Termogravimetrik analiz egri chizig'i (TGA) (1-egri chiziq) tahlili shuni ko'rsatadiki, TGA egri chizig'i asosan 3 ta intensiv parchalanadigan harorat oralig'ida amalga oshadi. 1-parchalanadigan oraliq 23,46-231,49°C haroratga, 2-parchalanadigan oraliq 231,49-424,14°C haroratga, 3-parchalanadigan oraliq esa 424,14-801,74°C haroratga mos keladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2-parchalanadigan oraliq intensiv parchalanish jarayoni sodir bo'ladi. Bu oraliqda parchalanishning miqdori, ya'ni parchalanishning 55,582%i amalga oshadi (7-rasm). DTA va TGA tahlillari natijasida olingan natijalarga asoslanib, jarayonning turli harorat oralig'i uchun kinetik parametrlar aniqlandi. Uning afzalligi bir qator o'lchovlar va bitta namunadan reaksiyalarning butun harorat oralig'ida kinetik xususiyatlari hisoblandi.

Tadqiqotlar natijasida ko'rinib turibdiki, asosiy massa yo'qolishi 1-parchalanishda 23,46-231,49°C oralig'ida kechadi, unda asosiy massaning 11,865%i yo'qoladi, 2-parchalanishda 231,49-424,14°C oralig'ida kechadi, unda asosiy massaning 55.582%i yo'qoladi, 3-parchalanish 424,14-801,74°C da amalga oshadi, bunda massaning 23.823%i yo'qoladi. 80°C dan keyin o'zgarish deyarli kuzatilmaydi. Massa o'zgarishsiz qoladi.

Shunday qilib, 23°C dan 80°C gacha bo'lgan harorat oralig'idagi jarayonlar kinetikasi bo'yicha olingan eksperimental ma'lumotlar asosida tarkibida kraxmal+akril emulsiyasi+KMS-Na kompozitsiyaning termik-oksidlanish degradatsiyasining xususiyatlari o'rganildi.

Termogravimetrik analiz egri chizig'i va differensial termik analiz egri chizig'ining batafsil tahlili, quyidagi jadvalda keltirilgan (4-jad.).

Tarkibida kraxmal+akril emulsiyasi+Na- KMS saqlagan ohorlovchi polimerlarning vazn yo'qotishiga harorat va vaqtning ta'siri

№	Temperatura, °C	Daqiqa	dw 6,50	1/T	dw/dt	M,g
1.	50	3,59	6,26	0,0211	0,2102	0,10
2.	100	9,11	6,01	0,0206	0,0893	0,35
3.	200	18,25	5,77	0,0201	0,1022	0,64
4.	300	24,36	4,68	0,0174	0,2133	2,87
5.	400	37,05	4,14	0,0168	0,2563	4,01
6.	500	48,19	3,72	0,0141	0,3749	4,69
7.	600	60,47	3,18	0,0117	0,3507	5,64
8.	700	68,33	2,76	0,0101	0,3610	6,22
9.	800	80,55	2,19	0,0098	0,3245	6,90
10.	900	83,51	1,95	0,0090	0,3243	6,88
11.	1000	87,15	1,79	0,0084	0,3250	6,91

Ohorlash jarayonida asosiy ipning fizik-mexanik xususiyatlarining sezilarli o'zgarishi kuzatiladi, bu to'quv mashinasida iplarning uzilishiga katta ta'sir qiladi.

To'quv jarayonida uzilishlar sonini kamaytirish uchun ohorlash jarayonini samarali o'tkazish kerak.

Ma'lumki, paxta tolasi asosidagi kalava iplarni ohorlash asosan tabiiy polimer-kraxmal (kartoshka, makkajo'xori, guruch) hisoblanadi. Kraxmal molekulasini kalava ipga chuqur kirishi uchun, unga yelimlanishni oshiruvchi komponentlar: kaustik soda, sulfat kislota va boshqa birikmalar kiritiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, to'qimachilik sanoatida kraxmalni qo'llash hajmi juda katta bo'lganligi sababli ishlab chiqariladigan mahsulotning unumiga va tannarxiga keskin ta'sir qiladi.

Ohor tarkibi bir qator asosiy talablarga javob berishi kerak: ipning orasiga kirib, quritgandan so'ng ipning sirtini tekislaydigan va uning adgeziyasi bardoshlilikini oshiradigan silliq, mustahkam elastik pylonka hosil qiladi va ipning mustahkamligini oshiradi.

Termogravimetrik analiz egri chizig'i va differensial termik analiz egri chizig'ining batafsil tahlili, quyidagi 5-jadvalda keltirilgan. Tarkibida kraxmal + akril emulsiyasi + Na- KMS uchun ushbu jarayonning faollashuv energiyasi qiymatlari keltirilgan.

№	dw 6,50	Ln(W ₁ /W ₂)	1/T10 ⁻³
1.	6,26	0,0896	21,1
2.	6,01	0,1012	20,6
3.	5,77	0,1018	20,1
4.	4,68	0,8061	17,4
5.	4,14	1,7062	16,8

6.	3,72	1,9945	14,1
7.	3,18	2,3203	11,7
8.	2,76	2,4584	10,1
9.	2,19	2,6760	9,8
10.	1,95	2,7073	9,0
11.	1,79	2,8010	8,4

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, ohorlovchining asosiy omillaridan biri ohor tarkibidagi komponentlarning konsentratsiyasi va qovushqoqligidir.

Shu sababli, oziq-ovqat mahsuloti hisoblangan kraxmal sarfini kamaytirish va jarayonni optimallashtirish maqsadida suvda eruvchan tabiiy va sintetik polimerlarga asoslangan yangi yuqori samarali resurs va energiyani tejovchi ohorlovchilarni olish texnologiyasini yaratish natijalari keltirilgan.


Dastlabki tajribalar shuni ko'rsatdiki, tanlangan komponentlarning 1,2-1,3% dan yuqori konsentratsiyasida (quruq kraxmalning og'irligiga qarab), hatto ohor tarkibida kraxmal miqdori past bo'lsa ham, yelimlash jarayoni sodir bo'lib qattiqlashadi va mexanik kuchlar ta'sirida kraxmalning to'kilishiga olib keladi. Shu munosabat bilan, kraxmalning massasiga nisbatan PVA, seritsin va PAA komponentlari mos ravishda 0,3-0,5; 0,1-0,2 va 0,4-0,5% qo'shildi.



Bundan tashqari, kraxmal ohorlovchi kompozitsiyalarida yelimlash qobiliyatini oshirish uchun 0,1% natriy gidroksid qo'shildi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

Kraxmal konsentratsiyasi: 1 -3%, 2 -4%, 3-5%, 4-6%. seritsin va PAA konsentratsiyasi mos ravishda 0,2 va 0,5% ni tashkil qiladi.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, kompozitsiya tarkibida PVA, seritsin va PAA komponentlarning kiritilishi ohor qovushqoqligini ortishiga olib keladi.

Olingan ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha, ohor tarkibdagi PVA miqdori ortib borishi bilan qovushqoqlik kraxmal ohoriga nisbatan deyarli 1,3 - 1,4 baravar ortadi. Masalan, 298K haroratda 4% li kraxmalli gidrogelning qovushqoqligi 13,64 Pa·s, 0,3% PVA kiritilganda, qovushqoqlik 20,82 Pa·s ni tashkil qiladi.





8-rasm.Ohorlovchi polimerlardagi PVA konsentratsiyasining ohorlangan ipning asosiy parametrlariga bog'liqligi

Olingan ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha, ohor tarkibdagi PVA miqdori ortib borishi bilan qovushqoqlik kraxmal ohoriga nisbatan deyarli 1,3 - 1,4 baravar ortadi. Masalan, 298K haroratda 4% li kraxmalli gidrogelning qovushqoqligi 13,64 Pa·s, 0,3% PVA kiritilganda, qovushqoqlik 20,82 Pa·s ni tashkil qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, PVAning turli konsentratsiyalarda kiritilishi kraxmal asosidagi ohor yelimlovchi moddalarning qovushqoqligidan juda katta farq qilishiga qaramay, qovushqoqlik ohor kompozitsiyasi tarkibida PAA va seritsin kiritilishi uning qovushqoqligini yana ortishiga olib keladi.


6-jadval

Ohorlovchi polimer kompozitsiyaning qovushqoqligini turli haroratlarda
ulardagi turli modifikatorlar tarkibiga bogʻliqligi

Kraxmal konsentratsiyasi %	Modifikatorlar konsentratsiyasi, % kraxmal massasiga nisbatan			Turli haroratlardagi qovushqoqlik, Pa			
	PVS	Seritsin	PAA	293	313	333	353
3				10,53	8,45	6,84	5,12
4				13,64	10,23	8,71	7,05
5				26,56	23,14	19,2	12,76
3	0,3			18,8	15,43	11,78	9,37
	0,4			20,82	16,14	13,82	8,64
	0,5			24,75	20,27	27,61	16,72
		0,1		12,27	10,07	8,23	6,76
		0,2		17,46	14,19	11,52	9,87
			0,4	19,76	15,23	12,22	11,08
			0,5	25,45	21,37	18,19	16,73
			0,6	37,21	30,81	24,65	19,71
	0,4	0,2		28,43	26,56	22,43	18,26
	0,4		0,5	43,82	37,43	31,58	28,78
	0,4	0,2	0,5	48,73	41,21	36,68	34,16
4	0,3			20,82	18,82	16,63	14,76
	0,4			24,26	20,14	17,4	15,65
	0,5			29,43	23,21	20,95	19,17
		0,1		19,27	16,15	13,27	11,45
		0,2		22,4	19,76	15,46	13,72
			0,4	21,75	17,38	14,45	12,27
			0,5	30,43	25,43	21,57	18,67
			0,6	46,35	40,72	36,63	31,76
	0,4	0,2		38,53	32,75	28,87	25,47
	0,4		0,5	48,62	41,26	37,14	33,84
	0,4	0,2	0,5	61,28	54,51	48,78	44,67
5	0,3			24,46	22,15	19,25	17,15
	0,4			27,72	24,27	20,18	18,17
	0,5			34,14	26,75	22,42	20,75
		0,1		23,47	20,05	17,64	16,23
		0,2		27,35	23,21	18,76	17,78
			0,4	26,72	21,43	19,83	14,72
			0,5	35,48	29,17	24,86	21,83
			0,6	50,72	45,23	39,92	35,42
	0,4	0,2		43,24	36,13	31,28	28,76

	0,4		0,5	51,74	48,16	42,17	37,14
	0,4	0,2	0,5	63,81	58,23	51,18	46,75


Kraxmal konsentratsiyasi: 1-4%, 2-5%, 3—6 %- tabiiy polimer-kraxmal suspenziyasini tayyorlash (aralashtirish vaqti 5-10 daqiqa);



9-rasm. Kraxmal-PVA-seritsin - PAA ohor tarkibi qovushqoqligining ohorlangan kalava ipning sifat ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik

Hosil bo'lgan suspenziyaga suvda eruvchan sintetik polimerlar: poliakrilamid (PAA), poliakrilonitril (PAN), karboksimetilsellyulozaning natriyli tuzi (Na-KMS), polivinilasetat(PVA) ni aralashtirib turgan holda qo'shildi va bunda harorat 60-65°Cgacha ko'tariladi; Olingan qovushqoq massaga pH muhiti 8.0-8.5ga yetguncha kerakli miqdorda natriy ishqori eritmasidan qo'shib, haroratni 85-90°C gacha ko'tarib aralashtirish davom ettirildi, bosqich davomiyligi 25-30 daqiqani tashkil etdi; Olingan ohorlovchi polimer kompozitsiyasi tindirildi va xona haroratigacha sovutildi;- Olingan mahsulot 100-105°C da quritildi; Jarayonni olib borishda 93-95%li kraxmal kukuni, asosiy moddaning massa ulushi 56% ga teng bo'lgan poliakrilamid (donador), Na-KMS-60% va PAN-98%, hamda PVA-45% ishlatildi.

Tarkibida kraxmal, poliakrilamid, akril emulsiyasi, Na-KMS va GIPANDan iborat ohorlovchi polimer kompozitsiya tarkibida namlik-1,85% bo'lgan mahsulotdan 231 kg ishlab chiqarildi. Mahsulot unumi 95,4% ni tashkil etdi.



10-rasm. Ohor tayyorlashning texnologik sxemasi.

1-kraxmal uchun bak; 2,3,4-modifikatorlar uchun bak; 5-ohor tayyorlash uchun reaktorlar, 6- navvoy

Shunday qilib, olingan eksperimental ma'lumotlarga asoslanib, to'qimachilik materiallarini ohorlash jarayonida samarali preparat sifatida kompozitsiyada kraxmal, akril emulsiyasi va KMS-Na sintetik polimerlaridan foydalanishning asosiy imkoniyati ko'rsatildi, bu bir tomondan oziq-ovqat mahsuloti hisoblangan kraxmal sarfini sezilarli darajada kamaytirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan to'quv sexida kalava iplar uzilishlar sonini kamaytirish orqali ishlab chiqarish hajmining oshishiga olib keladi.

Taklif etilayotgan ohorlovchining olish texnologiyasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Xomashyoni tayyorlash, modifikatsiyalash jarayoni uchun komponentlarni reaktorda kerakli nisbatlarda qo'shish.

Ushbu texnologiyaning boshqa ohorlovchilar olish va ohor tayyorlash texnologiyasidan afzalligi shundan iboratki, bir vaqtning o'zida ham kraxmalni modifikatsiyalash jarayoni, ham ohor tayyorlash jarayoni olib boriladi.

Kraxmal, kraxmal, akril emulsiyasi va Na-KMS asosida ohor tayyorlash texnologik jarayoni 10- rasmlarda keltirilgan.

Ohor tayyorlash texnologik reglamenti "Buxoro Natural produkt" MChJ "Buxoro TSK" MChJ "Buxoro Sevinch teks servis" MChJ me'yoriy hujjatlari asosida tayyorlandi. Ishlab chiqilgan reglament asosida ohorlash jarayoni nazorat qilinadi.

Ohor tayyorlash jarayoni uchun bosqichlar quyidagilar hisoblanadi: reaktorni suv bilan kerakli hajmda to'ldirish, uni kerakli haroratgacha isitish, ohorlovchi komponentlarni aralashtirgan holda qo'shish va ohorni zaruriy fizik- kimyoviy xossalarni namoyon qilishi darajasigacha olib borishdan iborat. Ohorlangan kalava iplarni to'quv dastgohlariga yuborish uchun ohorlash jarayoni muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, asosiy e'tibor ohor tayyorlash jarayoni va kalava iplarni ohorlash jarayoniga qaratilgan bo'lishi kerak.

Kalava iplarni ohorlashni ikki bosqichga bo'lish mumkin:

1. Kalava ipni ohorlovchi bilan yelimlash.

2.Ohorlangan kalava iplarni quritish va sovutish orqali kalava ip sirtida yupqa qatlam hosil qilishni ta'minlashdan iboratdir.

Snoval vallari orqali yo'naltiruvchi rolik yordamida vannaga yo'naltiriladi. Ohorlash vannasi ohor bilan doimiy to'ldirib turiladi. Valiklar orqali o'tgan kalava ip ohorlanib ortiqcha ohorni kalava ipdan olib tashlash uchun siqish validan o'tib quritish kameralariga ohorlangan kalava ip yo'naltiriladi. Bu yerda isitilgan havo bilan quritiladi va taroqlar orqali o'tib, to'quv navvoyiga (6) iplar yig'iladi va to'quv dastgohlariga yo'naltiriladi.

Iqtisodiy samaradorlik asosan ishlab chiqilgan ohorlovchi komponentning arzonligi, kalava ipni ohorlash uchun kraxmalga nisbatan sarf miqdorining kamligi va kalava iplarni uzilishlar sonining kamayishi hisobiga erishiladi. O'rtacha bir yilda ishlab chiqarish hajmi 3200 tonnani tashkil qilgan holda yillik iqtisodiy samaradorlik 8,08 mlrd. so'mni (2024-yil hisobida) tashkil etadi.

XULOSALAR

«Suvli eritmalarida polisaxarid va poliakrilatlardan iborat kompozitsiyalarning struktura hosil qilishi va ular asosida ohorlovchilar olish texnologiyasini yaratish» mavzusidagi texnika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun olib borilgan tadqiqotlarga asoslangan holda, nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Kraxmal, poliakrilatlar, gidrolizlangan poliakrilonitril, karbo-ksilmetilkraxmal, polivinilatsetat, karboksimetilsellyuloza, akril emulsiyasi va polifosfat kislotaning kaliyli tuzi asosida ohorlovchi polimer kompozitsiya tarkibi ishlab chiqilgan va paxta tolasi asosidagi kalava iplarni ohorlashning takomillashtirilgan texnologik usullari yaratilgan. Ohorlash jarayonida qo'llaniladigan polimer ingrediyentlarning optimal konsentratsiyalari va zaruriy reologik xossalari aniqlanib, ular ilmiy-nazariy jihatdan baholangan.

2. Ohorlovchi tarkibida 3,5% kraxmal, 0,2% Na-KMS, 0,5% AE va 0,04% kaliy polifosfat tuzi 0,02%, K-4 preparati 0,1%, PVA-0,4% dan iborat bo'lgan polimer kompozitsiyasidan foydalanib yetarli reologik xossalarni namoyon qiluvchi maqsadli ohorlovchilarning takomillashtirilgan samarali tarkibi taklif etildi.

3.Tarkibida suvda eruvchan, yuqori bo'kuvchan hamda yetarli qovushqoqlikka ega bo'lgan polimer suvli eritmaları asosidagi ohorlovchilarning fizik-kimyoviy va reologik xossalariga turli omillarning ta'siri o'rganildi. Ohorlovchi tarkibiga kiruvchi komponentlarning ohorlash jarayoni asosiy ko'rsatkichlariga ta'sirining o'ziga xosligi, samaradorligi va eng maqbulligi aniqlandi.

4. Olib borilgan tadqiqotlar va tahlillar natijasida ohorlovchi polimer tarkibining paxta tolali kalava iplarni ohorlash jarayonida qo'llanilishi ohorlangan kalava ipning fizik-mexanik xossalarini yaxshilash imkonini berdi. Kalava ipning yukdagi uziluvchanligi kraxmal asosida ohorlangan kalava ipga nisbatan 31-33% ga oshishiga, to'quv dastgohlarida uzilishlar soni 50-55% ga, kraxmal sarfining esa 40-45% ga kamayishiga erishildi.

5.Takomillashtirilgan texnologiya asosida yaratilgan ohorlovchilarni paxta tolasi asosidagi kalava iplarni ohorlashda ohorning nafaqat kalava ip sirtida

mustahkam plyonka hosil qilishi, balki uning ichki qismiga ham singishi sodir bo'lib, to'quv dastgohlarida kalava ipning uzilishlar sonini 0,31 dan 0,06 uzil/metr gacha kamayishiga erishilgan holda tegishli me'yoriy texnologik hujjatlar shakllantirilgan va o'rnatilgan tartibda tasdiqlandi.

6. Yangi ishlanmalar va izlanishlar natijalari ishlab chiqarish sinovidan o'tkazilib, paxta tolasi asosidagi kalava iplarni ohorlashda ohorlovchi sifatida to'qimachilik korxonalari amaliyotiga joriy etish uchun tavsiya qilindi.

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

I- bo'lim

1. Patent Uz №IAP07578. Shlixta kompozitsiyasini olish usuli: IAP 20230202, talabnoma.03.04.2023: ro'yxatdan o'tkazilgan 26.12.2023 / Amonov M.R., Ismatova R.A., Shadiyeva Sh.Sh., Nurova O.U., Niyozov E.D., Razzakov X.K.; Patent talabgori: Buxoro davlat universiteti. – 5-b.

2. Patent Uz №IAP7606. Shlixtalovchi tarkibni olish usuli: IAP 20230159, talabnoma.13.03.2023: ro'yxatdan o'tkazilgan 21.02.2024 / Amonov M.R., Ismatova R.A., Shadiyeva Sh.Sh., Niyozov E.D.; Patent talabgori: Buxoro davlat universiteti. – 7-b.

3. Patent Uz №IAP7846. Paxtadan yigirilgan iplar uchun oxor: IAP 20240227, talabnoma.16.04.2024: ro'yxatdan o'tkazilgan 17.10.2024 / Amonov M.R., Ochilova N.R., Ismatova R.A., Shadiyeva Sh.Sh., Shabarova U.N.; Patent talabgori: Buxoro davlat universiteti. – 9-b.

4. Ismatova R., Ibragimova F., Amonov M., Ravshanov K. Physical and mechanical properties of Yarn Coated with polymer compositions // European Journal of Molecular & Clinical Medicine. – London, 2020. – №7. – pp. 3671-3678 (E-ISSN:2515-8260, Scopus indexed).

5. Ismatova R., Ibragimova F., Amonov M., Ravshanov K. Physical and mechanical properties of Yarn Coated with polymer compositions International // Journal of Advanced Research in Engineering and Technology. – Tamilnadu, 2020. – №11. – pp. 2114-2121 (ISSN: 0976-6480, Scopus indexed).

6. Исмадова Р.А., Амонов М.Р. Структура образования вводных растворов полисахаридов и полиакрилатов и создание на их основе композиционных шлихтующих материалов: Монография. – Бухара.: Реклама Веб матбаа, 2021. – С.109.

7. Исмадова Р.А., Амонова М.М., Амонов М.Р. Физико-химическое обоснование шлихтования хлопчатобумажной пряжи с новыми составами // Научный вестник ФерГУ. – Фергана, 2021. – №1. – С. 51-56 (02.00.00; №17)

8. Исмадова Р.А., Амонов М.Р., Ражабова Л. Вязкостные характеристики крахмальных полимерных композиций // Композиционные материалы. – Ташкент, 2021. – №1. – С. 28-33 (02.00.00; №4).

9. Исмадова Р.А., Амонова М.М., Равшанов К.А., Амонов М.Р. Физико-химические аспекты получения и применения полимерной композиции для шлихтования хлопчатобумажной пряжи // Научный вестник НамГУ – Наманган, 2021. – №5. – С. 118-124 (02.00.00; №18).

10. Ismatova R., Amonov M. Physical and mechanical Indicators of yam sized with water-soluble polymer compositions // Journal of Pharmaceutical Negative results – Mumbai, 2022. – №11. – pp. 212-216 (ISSN: 2229-7723, Scopus indexed).

11. Исмадова Р.А., Казаков А.С., Амонов М.Р. Применение синтетических полимеров ПВС и Гипан для повышения эффективности шлихтования хлопчатобумажной пряжи // Universum: Технические науки. – Москва, 2024. – №8. – С. 29-33 (02.00.00; №1).

12. Исмадова Р.А., Казаков А.С., Амонов М.Р. Technological indicators of yarn of slimmed polymer composition // Universum: Технические науки. – Москва, 2024. – №9. – С. 65-68 (02.00.00; №1).

13. Ismatova R.A., Kazakov A.S., Amonova M.M. Structure Formation of Compositions Consisting of Polysaccharides and Polyacrylates in Aqueous Solutions and Creation of Moisturizing Ingredients Based on Them // American Journal of Polymer Science. – Rosemead, 2024. – №13. – pp. 21-26 (ISSN: 2163-1344).

14. Ismatova R.A., Kazakov A.S., Amonova M.M. Study of the Composition of Sizing and Its Impact on the Properties of Sizing Yarn // International Journal of Materials and Chemistry. – Rosemead, 2024. – №14. – pp. 103-108 (ISSN: 2166-5346).

II – bo'lim

15. Исмадова Р.А., Амонов М.Р., Шакаров Х.Х. Разработка композиционного состава для шлихтования хлопчатобумажной пряжи // Международная научно-практическая онлайн-конференция «Инновационные решения актуальных проблем в области высокомолекулярных металлоорганических соединений». – Ташкент, 28 мая 2021 г. – С. 46-49.

16. Исмадова Р.А., Амонов М.Р. Изучение технологические параметры приготовления шлихтующие композиции на основе водорастворимых полимеров // Международная научно-практическая онлайн-конференция «Инновационные решения актуальных проблем в области высокомолекулярных металлоорганических соединений». – Ташкент, 28 мая 2021 г. – С. 228-231.

17. Исмадова Р.А., Ибрагимова Ф.Б., Амонов М.Р. Изучение реологические свойства растворов крахмала с различным содержанием ПВС // Международная научно-практическая онлайн-конференция «Инновационные решения актуальных проблем в области высокомолекулярных металлоорганических соединений». – Ташкент, 28 мая 2021 г. – С. 232-234.

18. Исмадова Р.А., Ибрагимова Ф.Б., Амонов М.Р. Разработка эффективного состава полимерной шлихтующей композиции для шлихтования хлопчатобумажной пряжи // Республиканская научно-практическая конференция «Развитие и будущее химии природных соединений в Узбекистане». – Ташкент, 7 мая 2021 г. – С. 173-174.

19. Ismatova R., Amonov M., Shadieva Sh., Niyozov E., Ganiev B., Ochilova N. Chemical and thermal Properties Properties of compositions based on PAA, PVA and Na-CMS for printing flowers on silk fiber fabrics // E3S Web of Conferences, 389 (2023) 01019, <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202338901019>.

20. Ismatova R., Amonov M., Shadieva Sh., Ganiev B. Viscosity characteristics compositions based on PAA, PVS and NA-CMS // E3S Web of Conferences, 389, 01021 389 (2023) 01021 <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202338901021>

21. Исмадова Р.А., Амонов М.Р. Разработка полимерного состава для шлихтования пряжи // Республиканская научно-практическая конференция «Проблемы, решения и перспективы практического внедрения инновационных разработок в области химии и химической технологии». – Карши, 26-27 апреля 2023 г. – С. 321-325.

22. Исмадова Р.А., Амонов М. Р., Шадиева Ш. Физико-механические свойства пряжи ошлихтованными полимерными композициями // Республиканская научно-практическая конференция «Проблемы, решения и перспективы практического внедрения инновационных разработок в области химии и химической технологии». – Карши, 26-27 апреля 2023 г. – С. 325-328.

23. Исмадова Р.А., Шадиева Ш. Оҳорловчи полимер композициялар таркибини ишлаб чиқиш ва унинг хоссаларини ўрганиш // «Кимё ва кимёвий технологиянинг долзарб муаммолари ва ечимлари» илмий-амалий конференция. – Навоий, 2023 й. –379-381-б.

24. Исмадова Р.А., Амонов М.Р. Прочностные свойства ошлихтованной пряжи с синтетическими полимерам // Научно-практическая конференция «Актуальные проблемы и решения химии и химической технологии». – Навои, 2023 г. – С. 381-382.

25. Исмадова Р.А., Амонов М.Р., Нурова О., Шодиева Ш. Целлюлоза ҳосилалари асосидаги оҳорловчи композициялар реологик хоссалари // Международная научно-практическая конференция «Перспективы развития целлюлозы и целлюлозных производных. – Ташкент, 16-17 мая 2023 г. – С. 159-161.

26. Ismatova R.A., Amonov M.R. Tabiiy va sintetik polimerlar asosida ohorlovchi kompozitsiyalar yangi tarkibini yaratish va uning xossalarini o'rganish // «Kimyoning dolzarb muammolari» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari».– Urganch, 21-22 iyun 2024 y. – 356-357-b.

27. Ismatova R.A. Ohor xususiyatlariga polimer kompozitsiya tarkibiga kiruvchi komponentlarning ta'siri // «O'zbekistonning innovatsion taraqqiyotida yoshlarning o'rni» mavzusidagi yosh olimlar va iqtidorli talabalarning Respublika ilmiy- amaliy anjumani – Qarshi, 5-6 iyun 2024 y. – 169-171-b.

28. Ismatova R.A., Amonov M.R. Yuqori samarali ohorlovchi polimer kompozitsiyalar tarkibini ishlab chiqish va ularning xossalar // «O'zbekistonning innovatsion taraqqiyotida yoshlarning o'rni» mavzusidagi yosh olimlar va iqtidorli talabalarning Respublika ilmiy- amaliy anjumani – Qarshi, 5-6 iyun 2024 y. – 174-175-b.

IXTIRO PATENTI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

№ IAP 07578

Ushbu patent O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonuniga asosan quyidagi ixtiroga berildi:

Shlixta kompozitsiyasini olish usuli

Talabnoma kelib tushgan sana: **03.04.2023** Talabnoma raqami: **IAP 2023 0202**

Ustuvorlik sanasi: **03.04.2023**

Patent egasi(lari): **Buxoro davlat univesiteti, UZ**

Ixtiro muallif(lari): **Amonov Muxtar Raxmatovich, Ismatova Ra'no Axadovna, Shadiyeva Shoira Shuxratovna, Nurova Olima Umarovna, Niyozov Erkin Dilmurodovich, Razzakov Xasan Kalandarovich, UZ**

Ixtiroga berilgan patent O'zbekiston Respublikasi hududida 03.04.2023 yildan boshlab patentni kuchda saqlab turish uchun patent boji o'z vaqtida to'langandagina 20 yil mobaynida amal qiladi.
